

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**THE SEMANTICS OF THE COLOR RED IN THE REPRESENTATION OF TRADITIONAL IMAGES IN UZBEK AND GERMAN CLASSICAL POETRY****Adiba Dovudovna Madiyeva**

Uzbekistan State University of World Languages (UzSWLU)

Acting Associate Professor, PhD in Philology

Email: adibamadiyeva@gmail.com

Science ID: FQD-0326-0040

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: color semantics, Uzbek classical poetry, German Romanticism, artistic color palette, red color, yellow color, psychological analysis, comparative literature.

Received: 03.09.26**Accepted:** 04.09.26**Published:** 05.09.26

Abstract: This article provides a comparative-typological study of color semantics, specifically focusing on the artistic and psychological functions of red and yellow in Uzbek classical poetry and German Romanticism. Drawing upon the poetic works of Nodira, Uvaysiy, Annette von Droste-Hülshoff, and Karoline von Günderode, the study highlights the aesthetic role of colors in depicting human psychology, passionate love, the sorrow of separation, death, and existential anxiety. By juxtaposing Eastern mystical symbolism with Western Romantic perceptions, the article demonstrates how poetic color imagery serves as a bridge for universal human emotions across cultures.

O'ZBEK VA NEMIS MUMTOZ SHE'RIYATIDAGI AN'ANAVIY OBRAZLAR IFODASIDA QIZIL RANG SEMANTIKASI**Adiba Dovudovna Ma'diyeva**

O'zDJTU, dotsent v.b., f.f.d. (PhD)

Email: adibamadiyeva@gmail.com

Ilmiy identifikatsiya raqami: FQD-0326-0040

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ranglar semantikasi, o'zbek mumtoz she'riyati, nemis romantizmi, badiiy kolorit, qizil rang, sariq rang, psixologik tahlil, qiyosiy adabiyotshunoslik.

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek mumtoz adabiyoti va nemis romantizmi she'riyatida ranglar semantikasi, xususan, qizil va sariq ranglarning badiiy-psixologik funksiyalari qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq

etiladi. Tadqiqotda Nodira, Uvaysiy hamda Anette fon Droste-Hyulshoff, Karoline fon Gyunderrode lirik merosi misolida ranglarning inson ruhiyati, ishqiy tuygʻular, ayriliq dardi, oʻlim va ekzistensial xavotirni ifodalashdagi estetik oʻrni yoritilgan. Sharqona tasavvufiy ramzlar bilan Gʻarb romantik qarashlari qiyoslanib, ranglar vositasida umuminsoniy dard va kechinmalar qanday aks ettirilgani tahlil qilingan.

СЕМАНТИКА КРАСНОГО ЦВЕТА В ВЫРАЖЕНИИ ТРАДИЦИОННЫХ ОБРАЗОВ В УЗБЕКСКОЙ И НЕМЕЦКОЙ КЛАССИЧЕСКОЙ ПОЭЗИИ

Адиба Довудовна Мадиева

Узбекский государственный университет мировых языков, и.о. доцента

PhD по филологическим наукам

Email: adibamadiyeva@gmail.com

Science ID: FQD-0326-0040

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: семантика цвета, узбекская классическая поэзия, немецкий романтизм, художественный колорит, красный цвет, желтый цвет, психологический анализ, сравнительное литературоведение.

Аннотация: В данной статье проводится сравнительно-типологическое исследование семантики цвета, в частности художественно-психологических функций красного и желтого цветов, в узбекской классической литературе и немецкой романтической поэзии. На примере поэтического наследия Нодир, Увайси, а также Аннетте фон Дросте-Хюльсхофф и Каролины фон Гюнтерроде раскрывается эстетическая роль цвета в выражении душевного состояния человека, любовной страсти, боли разлуки, смерти и экзистенциальной тревоги. Сопоставляются восточные суфийские символы и западное романтическое мировоззрение, выявляется общность общечеловеческих переживаний.

Kirish. Ikki buyuk madaniyat – oʻzbek va nemis mumtoz sheʼriyati oʻzining boy obrazlar tizimida ranglar semantikasidan inson ruhining eng nozik qirralarini ochishda muvaffaqiyatli foydalangan. Jahon adabiyotshunosligida badiiy kolorit tushunchasi shoirning ichki kechinmalari hamda milliy-madaniy tafakkur tarzi bilan chambarchas bogʻliq holda oʻrganiladi. Sharqona sheʼriyatda qizil tus koʻpincha otashin ishq, hijron olovi va visol quvonchini ifodalasa, nemis romantizmida u hayotiy kuch, qon va fojiaiy ehtiros timsoli sifatida namoyon boʻladi. Sariq rang esa har ikki adabiyotda ham oʻziga xos ziddiyatli ramziy qatlamlarni tashiydi. Ushbu rang bir

tomondan quyosh nuri, yetuklik, aql va ma'rifatni anglatga, ikkinchi tomondan xazonrezlik, ayriliq azobi hamda ma'naviy so'nishni ko'rsatadi. Mana shu ikki xil bo'yoqning uyg'unlashuvi shoirlarga vaqtning o'tkinchiligi, sevgi va fojia o'rtasidagi abadiy muvozanatni falsafiy mushohada qilish imkonini yaratgan. Har ikkala xalqning klassik merosida mazkur timsollar milliy dunyoqarash va estetik tafakkurning o'ziga xos xususiyatlarini yorqin aks ettiradi. Ularning qiyosiy tahlili har ikki adabiyot vakillari insoniyatni qiynagan umuminsoniy dardlar va quvonchlarni bir xil noziklik bilan qog'ozga tushirganini ko'rsatadi. Shu boisdan ranglar polifoniyasi she'riyat olamidagi jo'g'rofiy chegaralarni yo'qotib, turli xalqlarning ruhiy yaqinligini ta'minlovchi muhim vositaga aylanadi. V. Belinskiy ta'kidlaganidek, "Butun olam, barcha ranglar, bo'yoqlar va ohanglar, tabiat va hayotning barcha shakllari poeziya hodisasi bo'lishi mumkin. Lekin u hodisalar zamirida nima yashiringan, ularning mavjudlik sababi qayerda va ular bizni nimasi bilan maftun etadi – masalaning mohiyati shunda." Bu jihat, ayniqsa, o'zbek mumtoz va nemis romantizmi lirik asarlarida tabiat manzaralari hamda rang-barang bo'yoqlar vositasida inson ruhiyatining nozik qirralarini ochib berishda yaqqol ko'rinadi.

Ranglar vizual belgilar bo'libgina qolmay, badiiy tafakkurning ifodasi hamdir. Alloma Abu Nasr Farobiy ta'bir qilishicha, "shoir va musavvirning maqsadi birdir, go'zallikni yaratish va idrok etish." Mazkur qarashlardan kelib chiqadiki, she'riyatda ranglar semantikasi ijodkorning ruhiy holati, estetik ideali hamda dunyoqarashi bilan sintezlashib, voqelikni rang-barang talqin etiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Mazkur maqolada o'zbek va nemis mumtoz lirikasidagi qizil va sariq bo'yoqlarning badiiy-psixologik funksiyalari matniy tahlillar asosida yoritiladi.

Natijalar. Sharq mumtoz adabiyotida ranglar tizimi shunchaki real narsalarning tashqi ko'rinishi emas, balki chuqur tasavvufiy ramzlar zanjiridan tarkib topgan. Ayniqsa, lirik qahramon va ma'shuqa qiyofasini yaratishda qarama-qarshi ranglarning estetik kontrasti keng qo'llanilgan. Mumtoz she'riyat namunalari qizil yoqutga o'xshatilgan la'l lab va uning ustidagi yashil zumruraddek yaltiroq xat o'zaro nozik uyg'unlik hosil qiladi. Bu kabi poetik holat ilohiy husnning benuqsonligini hamda Yaratuvchining cheksiz qudrati ila barpo etilgan koinotdagi muvozanatni ko'rsatib beradi. Qizil rang lab timsolida tiriklik suvi, jonga orom beruvchi quvvat hamda visol sharbatining timsoli bo'lib gavdalanadi. Yashil xat esa yoshlik, yangilanish va bahoriy nafasot ramzi sifatida uning atrofida jilvalanadi. Oshiqning bu yuksak manzaraga qarab lol qolishi uning moddiy olamdan kechib, ilohiy go'zallik va azaliy muhabbat daryosiga g'arq bo'lganini anglatadi. Shoirlar mazkur ranglar jilosi vositasida inson qalbida uyg'onadigan yashirin hayrat, pok tuyg'ular va yuksak estetik zavqni mahorat bilan ochib berganlar. Mumtoz baytning zohiriy jozibasi ortida yashiringan bu ranglar tilsimi kitobxonga olamning cheksiz sir-asrorlarini yurakdan his etish

imkonini taqdim etadi. Demak, Sharq lirikasida qizil rang go‘zallikning mutlaq cho‘qqisi va ishqiy hayratning bosh omilidir.

O‘zbek mumtoz poeziyasining nodir iste’dod egasi Nodira (Mohlaroyim) ijodida qizil tus ayollik nazokati bilan yo‘g‘rilgan fojiaiy ehtirosning aksiga aylanadi. Shoir o‘z she‘rlarida tabiat go‘zalligi bilan lirik qahramonning qalb tug‘yonlarini yagona parallelizm asosida birlashtiradi.

“Orazi gulgun ila qildi chaman sori xirom,

Gul yaqosin chok aylab, bo‘ldi rasvo bog‘ aro”

baytida ham ana shunday yuksak badiiyat namoyon bo‘ladi. Mazkur misralarda yorning gulgun, ya‘ni qizil chehrasi butun gulzordagi gullarni uyaltirib, lol qoldiruvchi qudratga ega ekani uqtiriladi. She‘rdagi alvon va qizg‘ish rang jilvalari oshiqning hijron o‘tida qovurilayotgan yoniq ko‘nglini hamda taqdir taqozo qilgan sinovlarni teran ifodalaydi. Lirik qahramonning qizil chehrasi qarshisida haqiqiy gulning o‘z yoqasini yirtib rasvo bo‘lishi – majoziy go‘zallik oldida tabiatning bosh egishidir. Bu haroratli bo‘yoqlar vositasida inson ruhining tub-tubidagi to‘qnashuvlar hamda ishq yo‘lidagi cheksiz fidoiylilik o‘quvchi qalbiga singadi. Nodira qizil rangni nafaqat visol va husn jilvasi, balki qalbning qonga aylangan dardi sifatida ham shakllantiradi. Muallif shu orqali dunyoviy go‘zallik va ilohiy muhabbat uyg‘unligini nihoyatda nafis adabiy libosda kashf etadi. Ayol shoiraning estetik qarashida qizil bo‘yoq cheksiz sadoqat, matonat va ichki dardning yorqin nishonasiga aylanadi.

Qo‘qon adabiy muhitining yana bir zabardast vakili Uvaysiy ijodida esa qizil rang bevosita qon, jigarpora iztiroblar va shaxsiy fojia timsoli darajasiga ko‘tariladi. Shoiraning hayot yo‘li hijron azoblari, yaqinlaridan judolik va umr bo‘yi chekilgan ruhiy qiynoqlarga boy bo‘lgani sir emas. Shu bois uning lirikasi shunchaki quruq tasavvufiy ramzlar bilan cheklanmay, balki hayotiy og‘riqlar bilan tutashib ketadi. Uvaysiy bir she‘rida shunday yozadi:

“Bag‘rim qonidin sochti ko‘zum, bo‘ldi ziroat,

Lola demag‘ilkim, dili xunbori ibodat alvon” Bu misralarda lirik qahramonning ko‘z yoshlari oddiy tomchilar emas, balki bag‘ir qoni sifatida ziroatga, ya‘ni ekinga sochiladi. Undan unib chiqqan lola esa tabiat guli emas, balki ibodat chog‘ida xun bo‘lgan, qonga to‘lgan yurakning qizil alangasidir. Alvon lola bu o‘rinda shoiraning qalb jarohatlarini va kechirgan mashaqqatli sinovlarini to‘liq gavdalantiradi. Shoir o‘zining og‘ir hayotiy tajribasini san‘at darajasiga ko‘tarib, qizil rang vositasida inson sabrining chegaralarini namoyon etadi. Muallifning shaxsiy qismati bilan uyg‘unlashgan bu qonli lavha asarning emotsional ta‘sir kuchini mislsiz darajada oshiradi. Shunday qilib, Uvaysiy poeziyasida qizil tus ruhiy dardning olovli ziroatiga aylanadi.

Sharqona ishq o‘ti va qonli ko‘z yoshlar an‘anasidan farqli ravishda, nemis romantizmi adabiyotida qizil rang inson ongi ostidagi vahimalar va tush dunyosi bilan uyg‘unlashadi. Nemis shoirlari ranglar vositasida inson ruhiyatidagi yashirin qo‘rquvlar, ruhiy jarohatlar va ichki

dramalarni kashf etishga intilganlar. Shu nuqtayi nazardan, taniqli nemis adibasi Annette von Droste-Hülshoffning misralari inson ongi va tush olami o'rtasidagi nozik muvozanatni o'tkir psixologik tarzda yoritadi. Shoiri o'z she'rida shunday yozadi:

“Ich sah wie blut'ge Striemen leis
An seinen Ärmchen niederflossen...”
Ko'rdim, qizil qon sizib sekin,
oqib tushar uning bilagidan...

Ushbu she'riy parcha o'quvchini darhol og'ir, xavotirli, sovuq va tushkun bir psixologik muhitga olib kiradi. Kichik bilakdan sizib oqayotgan qizil qon obrazi ojiz va begunoh vujud boshiga tushgan fojining estetik in'ikosidir. Bu o'rinda qizil bo'yoq yashash quvonchini emas, balki hayotning shafqatsiz zarbalari keltirib chiqargan jismoniy va ruhiy azobni anglatadi. Mazkur qon tasviri o'quvchi ko'z o'ngida himoyasiz inson fojeasini jonlantirib, g'amginlik hissini kuchaytiradi. Nemis romantik matnida qizil rang shafqatsiz reallik bilan to'qnashgan qalbning og'riqli sadosi sifatida jaranglaydi. Bu holat romantik adabiyotda qon simbolikasining naqadar ko'p qirrali ekanligini isbotlaydi.

Droste-Hülshoff lirikasidagi qizil qon motivi asta-sekin tushning sirli, vahimali va metafizik qatlamlariga ulanib ketadi. She'rning davomida shoiri qalbni larzaga soluvchi quyidagi satrlarni keltiradi:

Als sie vorüber schwand
Mit ihren blut'gen Haaren,
Da riss des Schlummers Band,
Ich bin emporgefahren.
Qonli sochlari bilan
Ko'zdan nari ketgach nogahon,
Uyqum rishtasi uzildi birdan
Cho'chib turdim o'rnimdan shu on.

Bu yerda “qonli sochlar” bilan gavgalanuvchi dahshatli va sirli qiyofa lirik syujetning eng yuqori kulminatsiya nuqtasini namoyon qiladi. Romantik poeziyada bu kabi kutilmagan qonli obrazlar insonni tunu kun ta'qib qiluvchi o'tmish xotiralari va yo'qotishlar ramzidir. Lirik qahramonning vahima bilan cho'chib o'rnidan turishi esa ong osti tazyiqidan qutulish, yorug' olamga qaytish istagini bildiradi. Biroq tush tugab, ko'zlar ochilgani bilan, uning vujudga qoldirgan og'ir ruhiy iztirobi va titrog'i sira yo'qolmaydi. Qizil rang orqali shoiri inson qalbining shafqatsiz qismat hamda bitmas jarohatlar bilan to'qnashuvini yuksak mahorat bilan ko'rsatib bergan. Nemis psixologik romantizmida qizil qon insonni ezuvchi ekzistensial xavotirning moddiy ifodasi sifatida xizmat qiladi. Lirik qahramonning tushida kechgan bu manzara uning uyg'oq

hayotidagi azoblardan ham dahshatliroq aks sado beradi. Mazkur poetik tajriba qizil rangning nemis adabiyotida xavf-xatar va ruhiy bosim ramzi ekanligini mustahkamlaydi.

Nemis romantizmining yana bir olovli vakili Karoline von Günderrode ijodida esa qizil rang mutlaqo o'zgacha – o'limni yenguvchi ehtiros va so'nmas muhabbat sifatida namoyon bo'ladi. Shoirira lirikasiga xos bo'lgan samimiyat va qalb tubidan qaynagan harorat qizil rangning eng toza qirralarini yuzaga chiqaradi.

Uning quyidagi qisqa, ammo o'ta otashin misralari romantik ruhning yuksak parvozidir:

“Du innig Rot, Bis an den Tod.

Soll meine Lieb' dir gleichen,

Soll nimmer bleichen,

Bis an den Tod,

Du glühend Rot,

Soll sie Dir gleichen”

O'zbek tiliga erkin tarjimada bu satrlar shunday yangraydi:

Ey qalbmimga qizil olov, to o'lgunimcha

Sevgim mening seningdek bo'lsin;

Aslo so'nib, rangpar bo'lmasin,

To o'lguncha, ey lovullagan qizil olov,

Mehrim sen kabi olovli bo'lsin.

Shoirira bu yerda qizil rangni o'zining butun borlig'ini qamrab olgan hayotiy quvvat, o'lim ham yengolmaydigan abadiy tuyg'u deb biladi. “Innig Rot” (qalb qa'ridagi qizil) va “glühend Rot” (cho'g'dek qizil) iboralari muhabbatning yonib turgan samimiy haroratini ifodalaydi. Lirik qahramonning o'z sevgisini qizil rangga qiyoslab, uning hech qachon oqarib so'nmasligini talab qilishi yuksak qat'iyatdan darak beradi. Mazkur misralarda qizil rang o'lim bilan yuzma-yuz kelganda ham chekinmaydigan, yo'q bo'lishdan qo'rqmaydigan mutlaq tuyg'uni tasdiqlaydi. Günderrode ushbu rang orqali inson ruhining mangu tirikligini hamda ehtirosning ilohiy qudratini tantanali ravishda tarannum etadi.

O'zbek va nemis she'riyatida qizil rang bilan bir qatorda sariq rang semantikasi ham chuqur ziddiyatli ma'nolar maydonini yaratadi. Sharq adabiyotida sariq tus asosan oshiqning hijron dardi chekib, yuzining sarg'ayishi (za'faron bo'lishi) bilan assotsiatsiyalanadi. Mumtoz g'azallarda oshiq o'zining sarg'argan betini kuz faslidagi xazonga o'xshatib, yorning e'tiborsizligidan nolish qiladi. Ayriliq o'ti oshiq vujudini yondirib kul qilgach, uning yuzida faqat sariq g'am va intizorlik izlari qoladi. Nemis mumtoz va romantik adabiyotida esa sariq rang ikki tomonlama ziddiyatli mohiyat kasb etishi bilan ajralib turadi. Bir tomondan, Gyotening ranglar haqidagi ta'limotiga ko'ra, sariq rang quyosh nuriga eng yaqin bo'lib, ko'tarinkilik, ravshanlik, hayotiy shodlik va

intellektual yetuklikni ifodalaydi. Ikkinchi tomondan esa nemis romantiklarida sargʻayish tabiatning soʻnishi, kasallik, maʼnaviy zaiflik va oʻtkinchi umrning fojiaiy intihosini anglatadi. Xazonrezlik nafasi har ikki madaniyat shoirlarini foniy dunyo haqida falsafiy mushohada yuritishga chorlagan. Shu tarzda sariq rang Sharqda oshiq qalbining jismoniy-ruhiy iztirobi boʻlsa, Gʻarbda ongning yorugʻligi hamda vujudning fojiaiy tushkunligi ramzidir. Ushbu rang vositasida shoirlar hayot va oʻlim chegarasidagi nozik tebranishlarni mahorat bilan ifodalaydilar.

Muhokama. Qiyosiy-tipologik jihatdan qaralganda, Nodira va Uvaysiyning qizil boʻyoqlari bilan nemis shoirlarining qizil rang talqinlari oʻrtasida ajoyib umumiylik hamda oʻziga xosliklar koʻzga tashlanadi. Oʻzbek shoirlari qizil rangni lola, gulgun yuz, qonli koʻz yoshi timsolida koʻproq hijron va ilohiy sadoqat doirasida talqin etadilar. Ularning qahramonlari dardni ichga yutib, qonli iztiroblarni yuksak maʼnaviy kamolot bosqichi sifatida qabul qiladi. Annette von Droste-Hülshoffda esa qizil qon dahshatli tushlar, ichki qoʻrquvlar va hayotning jarohat yetkazuvchi sovuq zarbalari shaklida oʻrtaga chiqadi. Karoline von Günderrode qizil tusni barcha toʻsiqlarni supurib tashlovchi, oʻlimga qarshi isyon koʻtaruvchi alangali muhabbatga aylantiradi. Demak, har toʻrtala ijodkorda ham qizil rang shunchaki vizual tus emas, balki qalb jarohatlarining va bepoyon ehtirosning estetik vositasidir. Oʻzbek poeziyasida bu rang koʻproq sabr, fidoiylik va hasrat tusi boʻlsa, nemis romantizmida u psixologik jarohat va isyonkorona yashash harorati sifatida jilvalanadi. Ranglarning bunday farqli talqini xalqlarning diniy, falsafiy va madaniy ildizlariga borib taqalishi shubhasizdir. Shunga qaramay, insoniy fojia va sevgi haroratini ifodalashda ikkala adabiy muhit ham qizil rangning eng qaynoq nuqtalariga tayangan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ranglar semantikasi oʻzbek va nemis mumtoz sheʼriyatida inson qalbini oʻrganishning oʻziga xos kaliti vazifasini oʻtaydi. Qizil va sariq boʻyoqlar tizimi orqali shoirlar borliqning eng murakkab ziddiyatlarini, sevgi va ayriliq, hayot va oʻlim muammolarini kashf etganlar. Oʻzbek lirikasida laʼl lab, qonli yosh va xazonrang chehra tasvirlari orqali pokiza ishqning sabrli kechinmalari ifodalangan boʻlsa, nemis sheʼriyatida qonli jarohatlar hamda alangali hislar orqali inson ruhiyatining chuqur qatlamlari yoritilgan. Har ikki xalq namoyandalari tabiatdagi ranglar gammasini insonning ichki ruhiy holatlari bilan uygʻunlashtirib, jahon adabiyoti xazinasini boyitdilar. Bu kabi qiyosiy tahlillar turli sivilizatsiyalar adabiyotida mushtarak insoniy qadriyatlar mavjudligini yaqqol koʻrsatib beradi. Ranglar vositasida yaratilgan obrazlar zamon va makon sarhadlarini yengib oʻtib, bugungi kitobxon qalbiga ham birdek hayajon bagʻishlaydi. Shoirlarning rang tanlashdagi mahorati ularning estetik ideallari va badiiy niyatlarining naqadar yuksak boʻlganligidan dalolat beradi. Sharq va Gʻarb adabiy anʼanalari oʻrtasidagi bunday rang-barang aloqadorlik badiiy tafakkurning cheksiz imkoniyatlarini yana bir bor tasdiqlaydi. Kelgusida boshqa ranglar semantikasini ham qiyosiy oʻrganish adabiyotshunoslik

ilmi uchun yangi ufqlarni ochib berishi muqarrar. Ushbu tadqiqot esa xalqlar o'rtasidagi adabiy-madaniy ko'priklarni mustahkamlashga o'zining munosib hissasini qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Белинский В.Г. Адабий орзулар. Адабий-танқидий мақолалар.Жамоатчи муҳаррир М. Қўшжонов.- Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977, - Б. 105.
2. Форобий, Абу Наср. Шеър санъати ҳақида. // Адабиётшунослик методологияси (Тупловчи: Баҳодир Каримов). – Тошкент: «Муҳаррир», 2011. – 8-бет.
3. Nodira. She'riyatidan. – Toshkent: O'zbekiston KP Markaziy Komitetining nashriyoti, 1979. – B. 14.
4. Uvaysiy. Mazmun ma'dani: she'rlar / Tuzuvchilar: A. Turdialiyev, U. Ne'matov. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B. 37.
5. Annette von Droste-Hülshoff, Gesammelte Werke (Gedichte und Prosa), München: Anaconda Verlag, 2023. S. 34.
6. Günderrode Karoline von. Gedichte / Herausgegeben von Friederike Reents. – Stuttgart: Reclam, 2011. – S. 45.